

YOSHLAR IJTIMOIY –MADANIY FAOLLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li
Namangan davlat universiteti

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada yoshlar ijtimoiy madaniy faoliyatning jamiyatiga taraqqiyotidagi o'rni, ularning ahamiyati aks ettirilgan

Kalit so'zlar: Yoshlarga oid davlat siyosati, ijtimoiy institut, ijtimoiy islohotlar, fuqarolik jamiyat, demokratik jarayonlar, mafkuraviy qarashlar, yoshlar jamg'armalari,

РОЛЬ МОЛОДЕЖНОЙ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражена роль социально-культурной деятельности молодежи в развитии общества и ее значение.

Ключевые слова: государственная молодежная политика, социальный институт, социальные реформы, гражданское общество, демократические процессы, идеологические взгляды, молодежные фонды.

THE ROLE OF YOUTH SOCIAL-CULTURAL ACTIVITY IN SOCIETY DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article reflects the role of social and cultural activities of young people in the development of society and their importance.

Key words: State youth policy, social institution, social reforms, civil society, democratic processes, ideological views, youth funds.

Jamiyat hayotini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bu-yoshlar hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar rivojida bu tabaqaning alohida o'rni bor. Yoshlar hayoti, ularning ijtimoiy – siyosiy harakati bilan bog'liq jarayonlar jamiyat hayotining ko'zgusi, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning aks – sadosi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tishi va mamlakatda amalgalashirilgan keng ko‘lamdagi islohotlar hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni masalasini nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib berdi. Bugungi kunda jamiyatning yangilanishi, amalgalashirilayotgan islohotlar, rejalarining samarasi, avvalambor yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan qanchalik faol ekanligi bilan bevosita bog‘liq. Bundan ko‘rinib turibdiki jamiyat hayotida yoshlarning tutgan o‘rni juda muhimdir. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda bugungi kunda dunyo hamjamiyati taraqqiyotida va xalqaro ijtimoiy-siyosiy hayotda yoshlarga oid siyosatni amalgalashirilishi, dunyo hamjamiyati tomonidan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalasi, ularning mavjud muammolarini bartaraf etish yo‘llari kabi bir qator masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularning ijtimoiy – siyosiy hayotda o‘z o‘rnini topishi, jamiyatning tom ma’noda harakatga keltiruvchi kuchiga aylanishi bilan bog‘liq muammolar shu jumladandir.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga jamiyatning imtiyozli qatlamanidan biri sifatida g‘amho‘rlik ko‘rsatilib, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ularga oid davlat siyosatini izchil ro‘yobga chiqarib kelinmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilgan. Qonunning 1-moddasida “Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoniboricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir” [1.] deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamona viy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yanmiz” [2]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, mamlakatimizda amalgalashirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog‘liqligidadir, chunki mamlakatimizda yoshlarning aholi tarkibidagi salmog‘i 64,0 % tashkil qiladi[3.]. Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeining tobora ortib borishi mamlakatimiz uchun o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugun yangicha dunyoqarash va demokratik tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarning yangi avlodni

shakllanmoqda. Shu bois ham, O‘zbekistonni yoshlar mamlakati deb atash mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2008 yil oxiriga kelib mamlakatimizda amaldagi qonun hujjatlari miqdori 5091 tani, ya’ni 307 ta qonun, 465 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 545 ta Farmonlari, 308 ta qaror, 14 ta farmoyish, 2328 ta hukumat qarorlari, 1124 ta vazirlik va davlat organlari hujjatlarini tashkil etdi[4.]. Bu chiqarilgan qonun hujjatlaridan yurtimizda yoshlarga doir 100 ga yaqin qonun hujjatlari, 10 dan ortiq qonunlar, 30 dan ortiq Prezident qarorlari va farmonlari, 40 dan ortiq Vazirlar Mahkamasi qarorlari chiqarilib amaliy hayotga tadbiq etildi [5.].

Mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni va salohiyatiga doir masalalar yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu tadqiqotlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Jumladan, A.S.Datiboyev, I.Yu.Inoyatov, S.U.Sulaymonova, A.R.Hakimov, R.N.Tolipov, R.B.Siddiqovlar O‘zbekistonda sovet totalitarizmi va mustaqillik yillarda o‘rta-maxsus kasb hunar ta’limi tizimida kadrlar tayyorlash, sanoatni rivojlantirishda ishchi yoshlar, qishloq xo‘jaligi taraqqiyotida yoshlarning ishtiroki masalalarini tahlil qildilar. Shu bilan birga tadqiqotchilardan D.N. Rajabova, E.M.Abzalov, L.X.Tangriyev, R.E.Turdiboyeva, Q.Quranboyev, N.Hasanov, N.Hasanova, D.Bo‘ronovalar o‘z tadqiqotlarida yoshlarning ijtimoiylashuvi, ularning bandlik masalasi hamda jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotdagi munosabatlari, huquqiy madaniyatini yuksaltirish kabi masalalarga alohida e’tibor bergenlar[6.].

Iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy islohotlarni amalga oshirishda yoshlarning faolligini oshirish, ularning jamiyat hayotiga integratsiyasini ta’minlash kabi masalalari Z.Qodirova, I.Karimov, T.Malikov, B.Jo‘rayev tadqiqotlarida tahlil etilgan. E.X.Babamuratov demokratik jamiyatning ma’naviy yangilanishi jarayonida yoshlar ijtimoiy tafakkurida kechayotgan o‘zgarishlari masalalariga e’tibor qaratganlar.[7.]

Keyingi yillardagi o‘z ilmiy tadqiqotlarida B.Djambakiyev, G.Tillaryeva, A.Mavrusov, S.Fayziev, K.Normatov, X.S. Hayxova, E.Karimov, Sh.Gayupova, K.Kalonov, R.Ismailova, kabi tadqiqotchilar yoshlar va yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy hayotdagi tutgan o‘rni masalalarinin muayyan bir jihatlarini tahlil qildilar[8.].

Yoshlarga jamiyatninig barcha sohalarida asosiy kuch sifatida qaraladi. Ularning siyosat, iqtisod, qishloq ho‘jaligi, davlat boshqaruvi kabi yo‘nalishlardagi faoliyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak bugungi kunga kelib yoshlar jamiyatda etakchi mavqega ega bo‘lgan qatlamga aylandilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonlarda yoshlar o‘zlarining

siyosiy faolligi bilan alohida tashabbus ko‘rsatmoqdalar. Demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi eng muhim omillardan biridir. Bu haqida buyuk davlat arbobi I.A.Karimov quyidagi fikrni bildiradi: “Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko‘p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etish masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma’lum. O‘zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o‘zlar qanday boshqarilayotganligi haqida ma’lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo‘lishlariga erishish kerak. Shunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdar shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o‘z masuliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur. Barqaror, mustahkam tizimlarda, agar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun hamma huquqiy, demokratik shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, aholining o‘zi ixtiyoriy ravishda, professional asosda mamlakatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etadi”. Bu borada I.A.Karimov yoshlarimizning davlat siyosati, oldimizga qo‘yan vazifalarimizni qay darajada anglashi bilan bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratadi. Darhaqiqat, yoshlarimizning siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy bilim saviyasi tobora o‘sib bormoqda. Ular mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini nafaqat anglab etmoqdalar. Ayni paytda, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, sud-huquq, axborot sohasini isloh qilishda faol ishtirok etmoqdalar. “Buning tasdig‘ini, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat’iy va izchil tus olgani, odamlarimiz o‘zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongu tafakkuri yuksalib, yon-atrofda bo‘layotgan barcha voqeа-hodisalarga dahldorlik tuyg‘usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko‘rish, anglash qiyin emas”[9.].

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining o‘rni beqiyosdir. Hozirgi davrda O‘zbekistonda 7 millionga yaqin fuqarolar kasaba uyushmalari faoliyatida, 600 mingdan ortiqroq fuqarolar esa siyosiy partiyalar a’zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar.

Shuningdek, millionlab fuqarolar, yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg‘armalar, nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etmoqdalar. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu - ularning mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim voqealik hisoblangan saylovlaridagi faol ishtiroki sanaladi. Ayni vaqtida saylovlar yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiradi. Saylovlar vaqtidagi turli kampaniyalar, ayni jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tadbirlar saylovchilarning

siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltiradi, yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda bugun yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, davlatining taraqqiyotiga o‘ziga xos munosib hissa qo‘shayotgan yangi avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tomonidan yoshlarga alohida e’tibor qaratilayotgani kelajagi porloq yurtimizni rivojiga katta hissa qo‘shamoqda. Shu bilan birga jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning roli va mas’ulligi oshib bormoqda. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ular tomonidan ko‘rsatilayotgan faollik va uning natijasida yuzaga kelayotgan muvaffaqiyatlar mamlakatimizning buyuk kelajagini ta’minlashdagi asosiy unsurlardan biri bo‘lishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги қонун 1991 йил 20 ноябрь. // Халқ сўзи. 1992 йил 8 январ.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз-Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир.–Тошкент: Ўзбекистон, 2010.–Б.74–75.
3. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. – 16-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 163.
4. <http://www.Lex.Uz/law/>
5. <http://www.region.uz/news/>
6. Топилдиев О. Ёшлар – келажак бунёдкорлари. – Наманган, 2013. – Б.6
7. Djambakiyev B. Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini takomillashtirishning ayrim masalalari // Falsafa va huquq. - Toshkent, 2007. 2-son. - B. 57-58.
8. Karimov I.A Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11.-Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
9. Karimov.I Mamlakatimiz demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsisiyasi. -Toshkent, 2010. Б. 7.